

**O‘ZBEK VA INGLIZ ERTAKLARIDAGI YOVUZLIK LEKSEMALARINING SEMANTIK TAHLILI XUSUSIDA****Yusupova Omina Muhammadzoi qizi**Farg‘ona davlat universiteti, ingliz tili o‘qituvchisi  
[yusupovaomina77@gmail.com](mailto:yusupovaomina77@gmail.com) +998939894445

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o‘zbek hamda ingliz xalq ertaklarida yovuzlikni ifoda etuvchi leksemalarning semantik xususiyatlari tahlil etilgan. Ertaklarda asosiy tushunchalardan biri bo‘lgan yovuzlikni ifodalovchi leksemalarning leksik-semantik tadqiqida turli tizim tillardagi misollardan foydalanilgan. Tadqiqotning asosiy maqsadi ikki xalq ertaklarida keng tarqalgan leksemalarni semantik nuqtai nazaridan yanada chuqurroq o‘rganishdir.

**Kalit so‘zlar:** xalq ertaklar, leksemalar, yovuzlik, nodonlik, folklor, semantik tahlil, turli tizimli tillar.

**Annotation:** This article analyzes the semantic features of lexemes expressing evil in Uzbek and English folk tales. In the lexical-semantic study of lexemes representing evil, which is one of the main concepts of fairy tales, examples from different system languages are used. The main goal of the research is to study in depth the lexemes common in the folk tales of the two nations from the semantic point of view.

**Key words:** folk tales, lexemes, evil, stupidity, folklore, semantic analysis, different systematic languages.

**Аннотация:** В данной статье анализируются семантические особенности лексем, выражающих зло, в узбекских и английских народных сказках. При лексико-семантическом исследовании лексем, обозначающих зло, являющееся одним из основных понятий сказки, использовались примеры из разных системных языков. Основная цель исследования - углубленное изучение лексем, общих в народных сказках двух народов, с семантической точки зрения.

**Ключевые слова:** народные сказки, лексемы, зло, глупость, фольклор, семантический анализ, разные систематические языки.

Turli tizimli tillarda mavjud bo‘lgan ertaklarning bosh g‘oyasi asosan ezgulikning yovuzlik ustidan g‘alabasi, donolik tufayli nodon kimsalardan ustun kelish, adolat qaror topishi kabilarni tashkil etadi. Millatlar yashar ekan, ular bilan birga xalq og‘zaki ijodi ham yashashda davom etadi hamda o‘sha xalqlarning ajralmas qismiga aylanadi. Xalq og‘zaki ijodi namunalaridan biri bo‘lgan ertaklar xalqning o‘tmishi, yashash tarzi, madaniyati, o‘zligini ifodalaydi. Shu sababdan ham turli xalqlarning ertaklariga bo‘lgan qiziqish, ularni qiyosiy tadqiq etish davom etib kelmoqda. Bizning tadqiqotimizda ham ingliz va o‘zbek ertaklarida mavjud bo‘lgan leksemalar qiyosiy jihatdan tahlil etilgan. Xususan, yovuzlik leksemalarini o‘rganish ushbu tadqiqotimizning eng muhim bosqichlaridan biri sanaladi. Ertaklardan olingan misollar orqali qilingan tahillarimiz buni yaqqol ko‘rsatib bera oladi.

Aytish joizki, bazi ertaklarning nomlarida ham ezgulik va yovuzlikni ifodalovchi leksemalarni ko‘rishimiz mumkin hamda ertak mazmunida bu ikki qarama-qarshi tushunchalar aniqroq yoritib beriladi. Misol uchun *“Zulm va qasos”*, *“Zolim podshoh”* *“Qozining makri”*, *“Tuhmat balosi”*, *“Johil podshoh va Abu Ali”*, kabi ertaklarning nomlanishida ham yovuzlikni ifoda etadigan leksemalar mavjud. Ammo bu kabi ertaklarda ezgulik yovuzlik ustidan g‘alaba qozonadi, zolimlar jazolanadi.

Masalan, **“Zolim podsho”** ertagidan olingan quyidagi parchada zolim podsho va uning qilgan yomoliklari tasvirlanadi. Ertak quyidagi so‘zlar bilan boshlanadi: *“Bir bor*

ekan, bir yo‘q ekan qadim zamonda bir podsho bor ekan. U, shu qadar zolim va johil ekan, ta‘biga kelgan har qanday noma‘qul ishni qilaverar ekan” [4,99]

Ertakdagi **zolim** leksemasi arab tiliga mansub bo‘lib, *zulmkor, mustabid* degan ma‘nolarni anglatadi. *Zulm qiluvchi, zulmkor, jabr qiluvchi; rahm-shafqatni bilmaydigan, berahm; berahmlikni, shafqatsizlikni ifodalovchi; jabr-zulm bilan to‘lib-toshgan, qahrli* [5,381] kabi ko‘plab ma‘nolarni ifodalashda qo‘llaniladi. Ertakda ham zulm qiluvchi, zulmkor, jabr qiluvchi ma‘nolarida kelib, podshoning salbiy sifatlarini ifodlagan. Qilaversa, ertakda *boshi o‘limda, moli talonda, g‘azblanibdi, o‘dag‘aylabdi, zindonga tashlabdi, o‘ldiraveribdilar, og‘ziga qo‘rg‘oshin quydirmoq, dahshat qilib, o‘limga buyuribdi, do‘q urmoq, azob bermoq, terisini shildirmoq, ming xil azob bilan o‘ldirmoq, kallasini sapchaday uzmoq* kabi yovuzlikni ifodalovchi barqaror birikmalar juda ko‘p o‘rinlarda uchraydi.

Ingliz ertaklaridan “**Whittington and his cat**”da yovuzlik ifodalovchi *ill-tempered* leksemasi *easily annoyed*, ya‘ni fe‘li buzuq tezda yomon jahli chiqadigan ma‘nosini ifodlaydi. *If an occasion, such as a game, is ill-tempered, people get angry during it.* [2]. Ertakda ham oshpazning salbiy xususiyati bu leksema orqali juda yaxshi tasvirlangan. (*ill-tempered creature*)

“**Ziyod botir**” ertagida **makkor** yovuzlik leksemasi uchraydi. Bu leksema o‘zbek tilida salbiy ma‘noga ega bo‘lib, bir nechta asosiy jihatlarni o‘z ichiga oladi. Arab tilidan kelib chiqqan va arab tilida “مكر” (makr) so‘zi hiyla-nayrang, makkorlik, aldov ma‘nosini anglatadi. Demak, bu so‘z “aldovchi” yoki “nayrangboz” ma‘nolarini qo‘llaniladi. Makkor lekesemasi odatda aldovchi, nayrangboz yoki firibgar shaxsni hamda boshqalarni aldash orqali o‘z manfaatlarini ko‘zlashni ifodalaydi.

“**The Rose-Tree**” ingliz ertagida esa o‘gay onaning yovuzliklari ko‘rsatib berilgan: *“The girl was as white as milk, and her lips were like cherries. Her hair was like golden silk, and it hung to the ground. Her brother loved her dearly, but her wicked stepmother hated her.”* [3,16] Ertakdagi parchada **wicked** leksemasi yovuzlikni ifoda etdi. Bu leksema *bad, evil, awful, terrible* kabi so‘zlar bilan sinonim bo‘lib kontekstda turli ma‘nolarda qo‘llaniladi.

1. morally wrong and bad: *in the end, the wicked witch gets killed.*
2. slightly immoral or bad for you, but in an attractive way: *a wicked sense of humour*
3. excellent: *The car is wicked* [2]

“**Ozodachehra**” ertagida ham yovuzlikni ifodalovchi ko‘plab leksemalar bilan birga barqaror birikmalar ham mavjud. *Badbaxt, zolim, zulm, g‘azab, g‘azablanmoq, jallod, qaroqchi, beaql,, ahmoq, yaramas, hiyla, boshini sapchaday uzmoq, noinsof, nohaq, xoin, o‘ch olmoq, dorga osmoq, va azoblamoq/ azoblab o‘ldirmoq* kabilar shular jumlasidandir. Ertakdagi jallod leksemasi doimo yovuz inson sifatida ko‘riladi. “**Jallod**” leksemasi fors tilidan kelib chiqqan bo‘lib, asli “jallād” shaklida yoziladi. **Jallod** arab tilidan olingan bo‘lib, “qatl qiluvchi”, “jazolovchi” ma‘nosini anglatadi. Bu leksema asosan shaxsiy sifat yoki kasb nomini bildirdiradi. **Jallod** leksemasining asl ma‘nosi *qatl etuvchi, rasmiy jazolarni amalga oshiruvchi, sud tomonidan chiqarilgan o‘lim jazolarini ijro etuvchidir.*

“**Dod**” ertagida *qaroqchi, ablah* kabi salbiy leksemalar mavjud.

Qaroqchi so‘zi o‘zbek tilida *yo‘lto‘sar, bosqinchi (odatda to‘da, guruh bo‘lib yuradigan bosqinchi, o‘g‘rilar haqida)* ma‘nolarni anglatadi va biz bu leksemani eshitganimizda qorqinchli, xavfli, qorqmas shaxslar yodimizga olamiz. Bu so‘z odatda biror narsa yoki holatning qorqinch va xavfli ekanligini ifodalash uchun ham ishlatiladi. Qaroqchi so‘zi salbiy konnotatsiyaga ega, chunki u qorqinchi va xavfli shaxsni ifodalaydi. O‘zbek maishiy ertagi “**Besh jonlini bejon qilgan Bahodir**”da ko‘plab ezgulik leksemalari o‘rin olgan. Xususan, *qo‘rqoq, yalqov, jahl, dahshatli, sher, falokat, ajal,*

*vahima, o‘dag‘aylamoq, aysh-ishrat, buzuqchilik, dangasalik, balo, dushman, yov* kabi salbiy baholanadigan leksemalar mavjud. Ertakdan olingan quyidagi poarchada ularni ko‘rishimiz mumkin:

“*Begunoh kishilarning kallalarini olish, boylik orttirish deysizmi, aysh-ishrat, buzuqchilik deysizmi, dangasalik deysizmi- hammasi shu yerda emish*” [4,360]

“*Ashey Pelt*” ingliz maishiy ertagida *unhappy, stepmother, wretchedness* kabi salbiy baholanadigan so‘zlar uchraydi.

“*The sisters, they didna’ like her, she was so pretty, and the stepmother, she kept her in wretchedness just.*” [1,26]

“**BELLING THE CAT**”da *evil, insolence, corruption, annoyed, enemy* leksemalari ko‘p o‘rinlarda keladi.

*Enemy*-a person who hates or opposes another person and tries to harm them or stop them from doing something; a country, or the armed forces of a country, that is at war with another country. [2] Bu leksema yovuzlikning tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi va doimo qarama qarshi dushmanni ifodlaydi.

Ta’kidlash joizki, bizning tadqiqotimizda bu kabi ko‘plab misollar chuqur tahlil qilinib, o‘zbek va ingliz xalq ertaklaridagi leksemalarni qiyoslash orqali samarali natijalarga erishildi.

#### **XULOSA**

Xulosa o‘rnida aytish joizki, tadqiqotimizning asosi bo‘lgan ertaklarda ezgulik yovuzlik ustidan g‘alaba qozonadi va yovuz qahramonlar mag‘lubiyatga uchraydilar. Turli tizimli tillardagi maishiy ertaklarda “yovuzlik” hamda “nodonlik” salbiy tushunchalarini ifodalovchi leksemalar tadqiqotimizda muhim o‘rin egallaydi. Ularning leksik-semantik xususiyatlarini qiyosiy tahlil qilish orqali o‘zbek va ingliz xalqlari folkloridagi o‘xshash va farqli jihatlarini batafsilroq bilib olamiz. Va bu kabi izlanishlar keying tadqiqotlarga katta yo‘l ochishi hamda muhim manbalardan biri bo‘lishi mumkin.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Briggs K. British Folk-tales and Legends. - London and New York, 2002
2. Cambridge Advanced Learner’s Dictionary & Thesaurus
3. ENGLISH FAIRY TALES COLLECTED BY JOSEPH JACOBS, 2005 The Pennsylvania State University
4. “O‘zbek xalq ertaklari” III jild, Toshkent-2014, 99-bet.
5. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Oltinchi jild, “X-Ch” Toshkent-2023, G‘ofur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.
6. Dildora, G., & Omina, Y. (2023). JAHON TILSHUNOSLIGIDA ERTAK DISKURSINING O‘RGANILISHI. *Involta Scientific Journal*, 2(5), 118-122.
7. Yusupova, O. (2023). JAHON VA O‘ZBEK FOLKLORSHUNOSLIGIDA ERTAK DISKURSINING TURLICHA TASNIFLANISHI. *Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари / Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук / Actual Problems of Humanities and Social Sciences.*, 3(8). 270-276
8. Alimov, S. S., & Yusupova, O. M. (2022). LINGUOCULTURAL FEATURES OF BORROWINGS FROM ENGLISH TO UZBEK LANGUAGE. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(1), 1-4.